

A J R I M

(Jazoni o'tash uchun manzil-koloniya-siga o'tkazish to'g'risida)

2021 yil sentabr oyining 17 kuni jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudining ochiq sayyor sud majlisi Qarshi shahar 3-son JIEKoloniya-si ma'muriyati binosida bo'lib, Raislik qiluvchi: shahar sudining sudyasi Sh.Eshimov, sudya yordamchisi O.Hamidov, Qashqadaryo viloyati qamoqqa olinganlarni saqlash va jazoni ijro etish joylarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat bo'yicha Qarshi maxsus prokurori yordamchisi K.Pulatov, koloniya vakili O.Qodirovning ishtirokida, 3-son JIEKoloniya-sining jazo muddatini o'tayotgan mahkum Mamatkulov Rustam Axmed o'g'lini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 113-moddasiga asosan o'talmay qolgan jazosini o'tash uchun manzil koloniya-siga o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomasini to'plangan hujjatlar bilan birga ko'rib chiqib, quyidagilarni

A N I Q L A D I:

Mahkum Mamatkulov Rustam Axmed o'g'li, 1998 yil 4 dekabrda Toshkent viloyati Bekobod shahrida tug'ilgan, millati tojik, o'zbek tilini yaxshi biladi va tarjimon xizmatiga muhtoj emas, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, bo'ydoq, vaqtincha ishlamagan, muqaddam sudlangan;

1) Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod tuman sudining 2014 yil 15 oktabrdagi hukmiga asosan, O'zbekiston Respublikasi JK 277-moddasining 2-qismi bilan yuritilgan jinoyat ishi JPKning 84-moddasi 5-qismining 3-bandiga asosan tugatilgan.

Qamalgunga qadar; Toshkent viloyati, Bekobod shahar, Bo'loqariq ko'chasi, 46-uyda yashagan.

Ushbu jinoyat ishi bo'yicha: jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudining 2018 yil 16 yanvardagi hukmiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 97-moddasining 1-qismi bilan 12 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, jazoni umumiy tartibli koloniyalarda o'tash belgilangan.

Jazo muddatining boshlanishi: 31.08.2017 yil

Jazo muddatining tugashi 31.08.2029 yil

Sud ishda mavjud bo'lgan hujjatlarni tekshirib chiqib, prokuror va koloniya vakili fikrlarini hamda mahkumning so'zini eshitib, muhokama qilib, mahkum R.Mamatkulov jazo muddatini o'tash davomida o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajarganligini va mehnatga halol munosabatda bo'lganligini, sud tayinlagan jazo muddatini kamida 1/3 qismini ya'ni 4 yil 16 kunini haqiqatda o'tab bo'lganligini e'tiborga olib, uning o'talmay qolgan 7 yil 11 oy 14 kuni ozodlikdan mahrum qilish jazo muddatini o'tash uchun O'zbekiston



Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 113-moddasiga asosan manzil koloniyaga o'tkazishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 537, 541, 542-moddalariga amal qilib, sud

AJRIM QILDI:

Mahkum Mamatkulov Rustam Axmed o'g'lining iltimosnomasi qanoatlantirilsin.

O'zbekiston Respublikasi JIKning 113-moddasiga asosan, mahkum Mamatkulov Rustam Axmed o'g'li o'talmay qolgan 7 yil 11 oy 14 kuni ozodlikdan mahrum qilish jazo muddatini o'tash uchun manzil-koloniyaga o'tkazilsin.

Ajrim nusxasi ijro qilish uchun prokurorga va 3-son JIEK boshlig'iga yuborilsin.

Ushbu ajrimdan norozi taraflar yigirma sutka ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudiga xususiy tartibda shikoyat berishga, prokuror esa protest bildirishga haqlidirlar.

Raislik qiluvchi sudya

Sh.Eshimov

